

YIRINGLI-YALLIG'LANISH JARAYONLARINI ULTRABINAFSHA NURLAR BILAN DAVOLASHNING IMMUNOLOGIK TA'SIRI

Abdullaev Rasulbek Kuryazovich

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali, Bolalar jarroxligi anesteziologiya va reanimatologiya kafedrası assistenti

Kirish. Yiringli-yallig'lanish jarayonlari murakkab biologik jarayonlar bo'lib, ular turli xil patogenlar va toksinlar ta'sirida paydo bo'ladi. Ushbu jarayonlar organizmning immun tizimi bilan yaqin aloqada bo'lib, ularning rivojlanishini tushunish, diagnostika qilish va davolash usullarini ishlab chiqish ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Oxirgi yillarda ultrabinafsha (UB) nurli davolash usuli yiringli yaralarni davolashda samarali usul sifatida e'tiborga tushgan. Ushbu tadqiqot yiringli yaralarni UB-nurlar bilan davolashning immunologik ta'sirlarini o'rganishga qaratilgan.

Tadqiqot maqsadi. Yiringli-yallig'lanish jarayonlarini ultrabinafsha nurlar bilan davolashning immunologik ta'sirini o'rganish.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda oq zotsiz kalamushlardan foydalanildi. Kalamushlarda sun'iy ravishda yiringli yaralar chaqirildi va immun tizimning asosiy parametrlarini o'rganish uchun UB-nurlar bilan mahalliy davolash amalga oshirildi. Immun tizimi ko'rsatkichlari sifatida immunoglobulinlar (IgA, IgG, IgM, IgE), sitokinlar (IL-1 β , IL-10) va prokalsitonin darajalari baholandi. Har bir ko'rsatkich laboratoriya usullari yordamida o'lchandi.

Tadqiqot natijalari. Natijalar shuni ko'rsatdiki, UB-nurlanish olgan kalamushlarda immun tizim ko'rsatkichlari muvozanatli bo'lib, IgA darajasi nazorat guruhidan sezilarli darajada yuqori bo'lgan (220 ± 0.06 g/l), IgE darajasi esa me'yor darajasida qolgan (17926 ± 489 IU/ml). Shu bilan birga, UB-nurlanish olmagan guruhda IgA kamayib (169 ± 0.05 g/l), IgG va IgM sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Sitokinlar bo'yicha ham o'zgarishlar sezilib, UB-nur ta'sirida IL-1 β va IL-10 darajalari kamaygan.

Munozara. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, UB-nurlanish yiringli jarayonlarda immun tizim parametrlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. UB-nurlanish allergik fonni pasaytirib, immun tizimning gumoral immuniteti va sitokin darajalarini barqarorlashtiradi. Natijalar UB-nurlanishning immun javobni yaxshilashda va yiringli jarayonlarni davolashda samarali ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida UB-nurlanishning yiringli yaralar bilan bog'liq immunologik jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. UB-nurlanish gumoral immunitetni kuchaytirib, sitokinlarning normallashtirilishiga yordam beradi. Ushbu usul klinik va eksperimental sharoitlarda yiringli-yallig'lanish kasalliklarini davolashda samarali bo'lishi mumkin.